

Jabborov Ikromjon Jumaniozovich
“Ma'mun universiteti” NTM,
Falsafa kafedrası katta o'qituvchisi
falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvufning yirik shahobchasi bo'lgan kubroviya talimotining ilmiy-falsafiy asoslari, kubroviya g'oyalarining ezgulikka yo'g'rilganligi, Najmiddin Kubroning “Ofoq va anfus” ya'ni katta va kichik olam haqidagi qarashlari, inson ma'naviy kamolotida ushbu nazariyaning ahamiyati, bugungi yosh avlodni tarbiyalashda insonparvarlik g'oyalarining o'rni, Xorazm zaminida ushbu tariqatning vujudga kelishi, inson ma'naviy kamolotida tariqat g'oyalarining ahamiyati, haqsevarlik, vatanparvarlik hamda nafs tabiyasida Najmiddin Kubro g'oyalarining o'rni, kubroviya ta'limotida insonning ilohiy ishqqa moyil bo'lishi, tasavvuf ahlining ruhiy-ma'naviy holati singari masalalar falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, zuhd, zohid, so'fiy, darvesh, javonmard, ishq, oshiq, jazba, shayx, valiy, avliyo, talab, tolib, solik, ofoq, anfus

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-философские основы кубровского учения, которое является основной ветвью суфизма, ориентация кубровианских идей на добро, взгляды Наджмуддина Кубро на «Офак ва анфус», то есть большой и малый мир, значение этой теории в духовной зрелости человека, роль гуманитарных идей в воспитании современного молодого поколения, возникновение этого ордена на Хорезмской земле, значение идей ордена в духовной зрелости человека, роль идей Наджмиддина Кубро в природе самодовольства, патриотизма, кубровской концепции философски анализируются такие вопросы, как склонность человека к божественной любви, духовное и духовное состояние людей суфизма.

Ключевые слова: тасаввуф, зухд, зоҳид, сўфий, дарвеш, жавонмард, ишқ, ашиқ, жазба, шайх, валий, авлиё, талаб, талиб, салик, афоқ, анфус

Abstract: In this article, the scientific-philosophical foundations of Kubrovian doctrine, which is a major branch of Sufism, the orientation of Kubrovian ideas to goodness, Najmuddin Kubro's views on "Ofaq va anfus", that is, the big and small world, the importance of this theory in human spiritual maturity importance, the role of humanitarian ideas in the education of today's young generation, the emergence of

this order in Khorezm land, the importance of the ideas of the order in human spiritual maturity, the role of Najmiddin Kubro's ideas in the nature of self-righteousness, patriotism, and the Kubrobian concept issues such as man's inclination to divine love, the spiritual and spiritual condition of the people of Sufism are analyzed philosophically.

Keywords: Sufism, truth, asceticism, ascetic, sufi, dervish, youth, love, passion, sheikh, guardian, saint, talab, talib, tax, afaq, anfus

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Tasavvufiy istilohda “so‘fiy” zohiddan farli o‘laroq, na dunyo va na oxirat ta’masidan yiroq bo‘lgan, yagona maqsad-istagi faqatgina Haq taoloning diydori bo‘lgan zotdir. Shuning uchun so‘fiylar Allohni jon-dildan sevis, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko‘ngilni nafsu-xirs g‘uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish g‘oyasini keng targ‘ib qildilar. Inson Allohning suyuqli bandasi, jami yaratilgan mavjudotlarning qaymog‘i, olamning gultojidir. Muqaddas Qur‘oni karimda odamzotning aziz va mukarram qilinganligi, Yer yuzidagi barcha mavjudotlar unga bo‘ysundirilganligi bir necha bor ta’kidlanadi. Boshqa mavjudotlardan afzalligi hamda buyukligi shundaki, unga Alloh taolo aql ne‘matini ato etgan. Ajdodlarimiz qoldirgan ta’limotlar mohiyatini chuqur tadqiq etish, ularni anglash, tushunish hamda kundalik hayotimizda ularga amal qilgan holda yashash hozirda real voqelikka aylanib bormoqda. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, bugun dunyoviy ilmlar bilan bir vaqtda diniy qadriyatlarimiz o‘rtasida uzviy bog‘liqlik yuzaga kelgan bo‘lib, bu nafaqat yurtimiz, balki butun jahon mamlakatlari rivoji uchun katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Aql yordamida u borliqdagi barcha narsa va hodisalarning mohiyatini anglab oladi, shu orqali o‘zini va tashqi olamni isloh qiladi. Shuning bilan birga Alloh unga botiniy nur bergan. Qalbini butun olamga ko‘zgu qilib yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Shayx Kubroning tasavvufga olib kirgan yangiliklaridan biri –“Ofoq va anfus” nazariyasini tatbiq etish bo‘lgan. “Ofoq va anfus” degani – Olami sag‘ir (kichik olam) va Olami kabir (katta olam) orasidagi munosabatlardir. Ilohiyot olami – kayhon Olami kabir, ya’ni ulug‘ Olam bo‘lsa,

inson – Olami sag‘irdir. Olami sag‘ir – Olami kabir, ilohiyot olamining va moddiy olamning, ya‘ni Olam chorgohlarining butun xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun insondagi – taraqqiyot - Olami kabir, ya‘ni Ulug‘ Olam bilan bog‘liq. Ulug‘ Olamning o‘zidagi o‘zgarishlar ham insonning hayoti, tafakkuri, ruhining taraqqiyoti bilan bog‘liq. Mana shunday qarashlarning vujudga kelishida Najmiddin Kubroning xizmatlari kattadir. Darhaqiqat, inson borliq, moddiy olamning mohiyatini hamda uning qanday vujudga kelishi yoki qonuniyatlarini anglab yetishi uchun dastavval o‘zini, o‘z borlig‘ini tadqiq etishi lozim.

Aynan mana shu so‘fiylar tasavvuf ta‘limotining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan zotlardir. Ulug‘ mutasavvuf, alloma shayx Najmiddin Kubro ana shunday Haqsevar zot edilar. Tasavvuf ahli haqida ruboiylaridan birida shayx shunday yozadi:

Darvesh elin yozg‘urma debon hordurlar,
To bordur ular, borligicha bordurlar.
Tariqchaga qone‘lar, olam tegsa,
Sabr birla qanoatga chunon yordurlar [1.14].

Ya‘ni so‘fiy, oshiq, darveshlar xuddi telbalardek, aqldan begonadirlar. Mana shuning uchun xalq ularni devona, g‘arib, telba deb, doimo malomat qiladi. Aslida ular tabiatan qanday bo‘lsalar shundaydirlar. Dunyo molidan bir dona bug‘doycha tegsa ham ularga kifoyadir. Undan ortig‘i uchun o‘zlarini qiynamaydilar.

Tasavvuf ta‘limoti Movarounnahrga Eron orqali kirib keladi. Uning yoyilishi o‘rta asrlarning mutafakkirlari Hakim at-Termiziy, Abu Homid G‘azzoliy, [Yusuf Hamadoni](#), Abdulxoliq G‘ijduvoni va Axmad Yassaviy hamda Najmiddin Kubro singari zotlarning nomlari bilan bog‘liqdir. Bu tariqat asosan shahar va shahar atroflarida yoziladi. U hayot bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallashga da‘vat etadi.

Tasavvuf ta‘limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda kishining har bir nafasida ongli, hushyor bo‘lmog‘i, bosgan har bir qadamiga diqqat e‘tibor solmog‘i, u Vatan ishi bilan band bo‘lmog‘i, xalq bilan aloqada hayot kechirmog‘i kerak, deb uqtiriladi [2.28].

Najmiddin Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida, o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning ta'limotiga ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik Olamni tashkil qiladiki, u makrokosm, ya'ni katta Olam, koinotda mavjud bo'lgan barcha borliqlarni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, yuqori samoviy doiralarda ilohiy sifatlar tartib bilan o'ziga hos maqomlarni egallaganligi bilan, haqiqat toliblari bunday yuksakliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotlarga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni bosib o'tishlari zarur[3.11].

Tasavvufning tariqat yo'llari g'oyat keng bo'lib, turli davrlarda Turkiston va Movarounnahrning turli o'lkalarida bu ta'limotning turli xil yo'nalishlari vujudga keldi. Jumladan, XII asrda Turkistonda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda esa Buxoroda Naqshbandiya va boshqa tariqatlar mavjud bo'lgan.

Muhokama. Najmiddin Kubroning ta'limoti tasavvufda kubraviya, boshqa manbalarda "Zahabiya" (Oltin tariqat) nomi bilan mashhurdir. Kubro tasavvuf tarixida keng fe'llik yo'lini tutgan shayxlardandir. Chunki, u zotning xonaqosida sunniy mazhabli shogirdlar bilan birga shia mazhabli muridlar ham ta'lim olgan. Demak, buyuk mutasavvif o'z ta'limotini targ'ib qilishda har qanday mazhabparastlik illatidan holi bo'lgan.

Falsafa har bir inson ma'naviy kamolotida doim ruh, ma'no, tafakkur erkinligini o'ta muhimligini ta'kidlab kelgan. O'tmishdan bizga ma'lumki, buyuk mutafakkirlarimiz ma'naviy-ruhiy yetuklikni vujudiy-nafsoniy istaklaridan ustun qo'yishgan. Shu o'rinda shayx Kubro hazratlari: "Qudsiy ruh latif va samoviydir. U himmat quvvati ila to'lib-toshgani zamon samoga bitishur va samo unda g'arq bo'lur. Aslida ruh bilan samo ayni bir narsadir. Bu ruh betinim ravishda parvoz etar, yuksalar, quvvatlanar, tarbiyalanar va mukammallashar, samoning sharafidan ham oliy bir sharafiga erishmoq uchun ushbu hol davom etar. Nihoyat samo cho'qqisini ishg'ol aylar" [4.34], deyдилar. Bu erda ruhiy yuksalish, kamolot to'xtovsiz ro'y berishi haqida so'z boradi

Najmiddin Kubroning g'oyalarini sistemalashtiruvchi Aziziddin Nasafiy shunday yozadi: "Ey darvesh! Mavjudot bir tomondan alomatdir, boshqa bir tomondan maktubdir. Alomat bo'lganligi sababli olam deb atadi, maktub bo'lganligi sababli kitob deb ism qo'ydi. Avvalgi katta kitobni Olami kabir – katta olam deb atadi, ikkinchisini Olami sag'ir – kichik olam deb atadi. Avvalgisini katta kitob deb nom qo'ydi, ikkinchisini kichik kitob deb nom qo'ydi. Katta kitobda nimaiki bo'lsa, kichik kitobda qisqartirmasdan va ko'paytirmasdan barchasini yozib qo'ydi. Kimki kichik kitobni o'qigan bo'lsa, katta kitobni o'qigandek bo'ladi. So'ng O'z xalifasini kichik olamga xalifalikka yubordi. Xudoning xalifasi Aqlidir" [5.118].

Komil insonlar esa hamisha jamiyatni ezgulikka boshlab kelganlar. Ulug' avliyolar, siddiqlar, solih kishilar ana shunday komillik kasb qilgan zotlar bo'lib, ular Payg'ambarlarning vorislaridirlar. Ular butun hayotarini ezgu ishlarga, inson ruhiy-ma'naviy kamolotiga bag'ishlagan zotlardir. "Insonparvarlik (gumanizm) – inson zotiga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, moddiy farovonligini yuksaltirishga xizmat qilish va odamlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish g'oyalari sug'orilgan dunyoqarashdir" [6.166].

Kubroviya ta'limotida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bu muqaddas g'oya yo'lida Najmiddin Kubro qo'lga qurol olib, o'z shogird va izdoshlarini orqasidan ergashtirib shahar aholisi bilan bir safda turib dushmanga qarshi g'azotda qatnashadi. Shahar ichida bosqinchilar bilan bo'lgan shiddatli jangda bu ulug' shayx o'z safdoshlari bilan shahid bo'ladi. Ulug' shayx hikmatlaridan birida: "Vatanni himoya qilayotib shahodat jomini no'sh aylash, Alloh visoliga yetish bilan barobardir", deya ta'kidlaydi.

NATIJALAR (PE3YJIBTATBI / RESULTS)

Najmiddin Kubro bir qancha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan. Ulardan asosiylari – **"Favoyih al-Jamol va fovotix al-Jalol"**, **"Al-usul al-ashara"**, **"Risolat al-Xaif al-Xaim min-Lauvmat al-laim"** va boshqalar.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda Islom taraqqiy etib, mustahkam qaror topgach, hukmdorlar davlatning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy boshqaruvini Islom huquqi asosida tashkil qildilar. Bunda mahalliy huquqshunoslar - faqihlar (islom huquqshunoslari) muhim o'rin tutgan. Xorazmshohlar ham o'z saltanatini shu asosda boshqardilar.

Najmiddin Kubro kishilarni saodat yo'liga – Alloh rizosi uchun go'zal axloq egasi bo'lishga, o'zida go'zal xislatlarni shakllantirishga, yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishga, komillik kasb etishga da'vat qilgan. O'sha davrda jahonning eng qudratli davlatiga aylangan Xorazmshohlar davlatida bu ta'limotga zid o'laroq shon-shuhratga o'chlik, manmanlik, kibru-havo, boylik ketidan quvish avj olayotgan, hurfikrlilik, huquq toptalayotgan, birdamlikka putur yetib, mamlakat ich-ichidan buzulib, choh yoqasiga kelib qolgan edi. Sohta shuhrat, manmanlik, kibru-havo oxir-oqibat Muhammad Xorazmshohnning ko'zini ko'r qilib qo'yadi. O'zini ikkinchi Iskandar deb atagan bu fotihning kaltabinligi natijasida xonadoni xor, mamlakati g'orat bo'ldi [7.8]. Ya'ni Xorazmdek buyuk davlat mo'g'ul bosqinchilari tomonidan bosib olinadi va vayronaga aylantiriladi.

Shayx Najmiddin Kubro huzuriga Eron, O'rta Osiyo, Misr, Kavkaz, Shom, Iroqning turli joylaridan muridlar kelib, tarbiya topganlar, shayx ma'rifatidan bahramand bo'lganlar, ulug' maqomu martabalarga erishganlar. Ulug' shayx Xorazmda "Javonmardiylik" maktabiga asos soladi. Javonmardiy atamasi – xalq uchun, el-yurt uchun jon fido etmoq ma'nosini anglatadi [8.88].

Tarixiy manbalarda kelishicha, mo'g'ullar itilosi arafasida shayxning to'rt yuzdan ortiq muridlari bo'lib, shayx ularni barchalarini o'z vatanlariga qaytarib yuborganlar. Ularning har birlari tasavvuf tarixida ulkan mavqega ega bo'lib, kubroviya tariqatining davomchilari bo'lganlar. Kubroviylik Sharq mamlakatlariga tarqalib, islomiy hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma'rifat g'oyalarining tarqalishiga yordam berdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Najmiddin Kubro butun umri inson pokligi, ilohiy ma'rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni qo'shdi, mardlik va ma'naviy yuksalishdan saboq berdi,

barchaga u zotning hayoti saboq bo'ldi. Shu bois uning merosi qadrlanib, avlodlar e'zosi, hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi [9.12-13].

Shubhasiz tasavvufning bir shahobchasi bo'lgan kubroviya ta'limoti va uning falsafasi bugungi kunimizda ham inson ma'naviyatini yuksaltirishda, yosh avlodni ta'lim-tarbiyalashda, ularni vatanga muhabbatli, hayotga teran ko'z bilan qaraydigan dunyoqarashi keng insonlar bo'lib etishishida beqiyos ahamiyatga egadir. Jumladan Shayx Najmiddin Kubro butun ijodining mohiyati ham qisqa qilib aytganda – insondir. Chunki u zotning deyarli barcha asarlarida mana shu masala bosh o'rinda turadi. Shu bilan birga ta'kidlamoq lozimki, insonga bo'lgan munosabat, ya'ni insonparvarlik singari oliyjanob tuyg'ular ham shundan hosil bo'ladi.

Buyuk bobokalonimiz Shayx Najmiddin Kubroning vatanparvarlikka chaqiruvchi g'oyalari hamda boy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish orqali tariximiz, madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning naqadar mumtoz va ulug'vorligi, u zotning hayoti o'zligini anglab etgan inson uchun ibrat va saboq ekanligini har birimiz chuqur xis qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Najmiddin Kubro. Jamoling menga bas!. Toshkent, «G'ofur G'ulom» 1994 y. –B. 3.
2. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent. «Movarounnahr» 2004 y.
3. Shayx Najmiddin Kubro. Shayxi risolaye odobul zokirin. / Tarjimon: M.Qodirov, mas'ul muharrir: M.Safarboyev. – Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 1997. – B.11.
4. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. «Movarounnahr» Toshkent, 2004 34-b.
5. Nasafiy A. Komil inson kitobi./N.Komilov, O.Davlatov tarjimasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ACH, 2021. – B. 118.
6. Falsafa: qomusiy lug'at. / tuzuvchi va mas'ul muharrir: Q.Nazarov. – T.: Sharq, 2004. – B.166.
7. Evgeniy Bertel's. Najmiddin Kubro. Muloqot jurnali, 1995y ¾ son
8. Haqqulov I., Tasavvuf saboqlari, Buxoro, 2000. –B. 56.
9. Otabek Safarboyev. Shayxlar va shahidlar kubrosi.T.: “JAVOHIR-ILM-NASHR”, 2024. – B.94.

10. Mahmud As'ad Jo'shon. Yunus Emro va tasavvuf. Toshkent. "Fan", 2001 y 12-13-b.